

**MODERN APPROACHES TO COMPILATION OF PERSIAN DICTIONARIES*****Bekhzod Farkhodovich Dzafarov****Senior lecturer**TSUOS**Tashkent, Uzbekistan****Zakir Tahirovich Arifdjanov****Senior Lecturer**IIAU**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Persian language, lexicography, dictionary, modern approaches, compilation methods, trends.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: This article discusses modern approaches to compiling Persian dictionaries. The current state of lexicography of the Persian language, the basic principles and methods of working on dictionaries, as well as current trends in this area are considered.

FORS TILIGA OID LUG‘ATLAR TUZISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR***Bexzod Farxodovich Djafarov****Katta o‘qituvchi**TDSHU**Toshkent, O‘zbekiston****Zokir Tohirovich Arifdjanov****Katta o‘qituvchi**O‘zXIA**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: fors tili, lug‘atshunoslik, lug‘at, zamonaviy yondashuvlar, jamlash usullari, yo‘nalishlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada forscha lug‘atlarni tuzishda zamonaviy yondashuvlar muhokama qilinadi. Fors tili leksikografiyasining hozirgi holati, lug‘atlar ustida ishlashning asosiy tamoyillari va usullari, shuningdek, bu sohadagi hozirgi tendentsiyalar ko‘rib chiqiladi.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОСТАВЛЕНИЮ ПЕРСИДСКИХ СЛОВАРЕЙ

Бехзод Фарходович Джафаров

Старший преподаватель

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

Закир Тахирович Арифджанов

Старший преподаватель

МИАУ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: персидский язык, лексикография, словарь, современные подходы, методы составления, тенденции.

Аннотация: В данной статье обсуждаются современные подходы к составлению персидских словарей. Рассматривается современное состояние лексикографии персидского языка, основные принципы и методы работы над словарями, а также актуальные тенденции в этой области.

KIRISH

Lugʻatlarni turli mezonlarga koʻra tasniflash mumkin, jumladan, ularning mazmuni, tuzilishi, koʻlami va boshqalar. Yuqoridagi mezonlarga koʻra tasniflashning bir necha yoʻli mavjud:

Mavzu boʻyicha:

- Biror bir tilining adabiy va ogʻzaki tiliga oid turli sohalardagi soʻz va iboralarni oʻz ichiga olgan umumiy lugʻatlar.
- Muayyan bilim yoki kasbiy faoliyat sohasi leksik birliklarni qamrab oluvchi maxsus lugʻatlar. Masalan, tibbiy, texnik, yuridik lugʻatlar va boshqalar.

Hajmi boʻyicha:

- Soʻz va iboralarning maʼnolarini tez aniqlash uchun moʻljallangan ixcham lugʻatlar.
- Soʻz maʼnolarining batafsil tavsifi va tushuntirishlari, foydalanish misollari va boshqalarni oʻz ichiga olgan toʻliq, izohli lugʻatlar.

Maqsad boʻyicha:

- Taʼlim muassasalarida va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish uchun yaratilgan akademik lugʻatlar.
- Ona tilida soʻzlashuvchilar va chet ellik talabalar tomonidan kundalik foydalanish uchun moʻljallangan amaliy lugʻatlar.

Format boʻyicha:

- Anʼanaviy qogʻoz lugʻatlar.

• Elektron lug‘atlar, dasturlar, ilovalar va onlayn resurslar. Elektron lug‘atlar - elektron formatda taqdim etilgan va odatda qo‘shimcha funksiyalar bilan jihozlangan bo‘ladi. Masalan, so‘zlarni qidirish, ovoqli talaffuzlar, havolalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Ularning tasnifi foydalanuvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga qarab batafsilroq bo‘lishi va boshqa mezonlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Shuningdek, lug‘atlarning quyidagi umumiy tasniflarni keltirish mumkin:

Tarkib bo‘yicha. Umumiy lug‘atlar - umumiy foydalanish uchun mo‘ljallangan keng doiradagi so‘zlar va ularning ma‘nolarini o‘z ichiga oladi.

Ixtisoslashgan lug‘atlar. Ma‘lum bir mavzu yoki bilim sohasi bilan cheklangan. Masalan, tibbiyot lug‘ati, yuridik lug‘at, texnik lug‘at vaboshqalar.

Tuzilishi bo‘yicha. So‘zlarning ma‘nolarini tushuntirish va talqin qilishni o‘z ichiga oladigan izohli lug‘atlar yoki so‘zlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi haqida ma‘lumotni o‘z ichiga oladigan etimologik lug‘atlar.

Qo‘llash sohasi bo‘yicha. Ilmiy va o‘quv faoliyatida foydalanish uchun mo‘ljallangan akademik lug‘atlar.

Kompilyatsiya usuli bo‘yicha. Matnlardan to‘plangan lug‘atlar turli asarlar va hujjatlar matnlarini tahlil qilishga asoslangan. Korpus lug‘atlar tahlil uchun ko‘p sonli matnlarni o‘z ichiga olgan lingvistik korpuslarga asoslangan bo‘ladi.

Bu tasniflar tadqiqotchilar va foydalanuvchilarga o‘z ehtiyojlari uchun eng mos lug‘atni tanlashda yordam beradi.

Shunday qilib, lug‘atlarni tuzishda zamonaviy yondashuvlar innovatsion va samarali bo‘lib bormoqda. Yangi texnologiyalar va matn tahlili usullaridan foydalangan holda leksikograflar lug‘atlarning sifati va kengroq auditoriyaga kirish imkoniyatini sezilarli darajada oshirmoqdalar. Yangi yondashuvlar shevalar va kasbiy atamalarning xilma-xilligini hisobga oladi, lug‘atlarni yanada to‘liq va dolzarb qiladi. Umuman, aytish mumkinki, lug‘atlarini tuzishga zamonaviy yondashuvlarning rivojlanishi so‘zlashuvchi xalqlar tili va madaniyatini chuqurroq va to‘liqroq tushunishga xizmat qilmoqda.

ASOSIY QISM

Fors tili boy tarix va madaniy merosga ega bo‘lgan dunyodagi eng qadimiy va eng go‘zal tillardan biridir. Hozirda fors tilining leksikografiyasi ham yuksak taraqqiyot bosqichida bo‘lib, zamonaviy yondashuv va texnologiyalar yordamida muntazam takomillashtirilmoqda.

Lug‘atlar har qanday tilni, jumladan, fors tilini ham o‘rganish uchun muhim vositadir. Hozirgi fors tili lug‘atlari o‘zidan oldingilaridan ancha izchil tuzilish, boy ma‘lumotlar hajmi va foydalanish qulayligi bilan ajralib turadi.

Forscha lugʻatlar tuzishda bir qancha muhim tamoyillar va usullar mavjud. Ulardan biri til oʻrganishga kompleks yondashuv boʻlib, uning barcha tomonlarini: soʻzlar, grammatika, fonetika va boshqalarni oʻz ichiga oladi. Yana bir muhim jihat - korpus tadqiqoti, kompyuter leksikografiyasi va boshqalar kabi zamonaviy lingvistik yondashuv va usullardan foydalanishdir. Mana shu ikki tamoyil uygʻunlashgan lugʻatlar hozirgi kunda eng foydalisi boʻlmoqda.

Fors tili leksikografiyasining hozirgi tendensiyalari zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va leksik maʼlumotlarni ifodalash va tartibga solishning yangi usullarining paydo boʻlishi bilan bogʻliq. Xususan, hozirda elektronlugʻatlar faol rivojlanmoqda, bu foydalanuvchilarga kerakli soʻz va iboralarni tez va qulay tarzda topish imkonini beradi.

Shunday qilib, forscha lugʻatlarni tuzishga zamonaviy yondashuvlar ularning dolzarbligi, toʻliqligi va foydalanish qulayligini taʼminlaydi, bu esa koʻpchilik uchun fors tilini oʻrganishni yanada qulayroq va qiziqarli qiladi.

Lugʻatlarni tuzish chet tillarini oʻrganishning eng muhim bosqichlaridan biridir. Biroq forscha lugʻatlarni tuzishda maʼlum muammolar ham boʻlib, bu esa tilni oʻrganishvleksik birliklarning maʼnosi bilishni qiyinlashtiradi.

Forscha lugʻatlarni tuzishdagi asosiy muammolardan biri birlamchi manbalardan foydalanishning cheklanganligidir. Klassik forscha matnlarning nashrlari, masalan, mashhur shoirlarining asarlari barcha tillarga ham tarjima qilinmagan. Bu asl matnlar bilan ishlash va fors tilining rang-barangligini aks ettiruvchi toʻlaqonli tarjima lugʻatlar yaratishni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, fors tili dialektlarva shevalarning xilma-xilligi muammosi ham mavjud. Mintaqaga va tarixiy sharoitga qarab, turli dialektlarning leksikasida, grammatikasida va talaffuzda farqlari boʻlishi mumkin. Bu hamma ona tilida soʻzlashuvchilar uchun tushunarli va ochiq boʻlgan universal forscha lugʻat yaratishni qiyinlashtiradi.

Yana bir muammo – forscha soʻzlarni tarjima qilish va transkripsiya qilishda standartlashtirilgan qoidalarning yoʻqligi. Turli mualliflar va tadqiqotchilar soʻz va iboralarni tarjima qilishda turli texnika va yondashuvlardan foydalanishi mumkin, bu esa turli forscha lugʻatlarni solishtirishni qiyinlashtiradi. Masalan, fors tiliga oid lugʻatlar, darsliklar, qoʻllanmalarda turlicha transkripsiya tizimiga duch kelishingiz mumkin. Bu koʻpincha lugʻatlar nashr qilingan hududdagi lisoniy omillarga bogʻliq boʻladi.

Umuman olganda, forscha lugʻatlarni tuzish muammolari tilshunoslar, tarjimonlar vatil egalarioʻrtasida kompleks yondashuv va hamkorlikni talab qiladi. Bu qadimiy tilning butun goʻzalligi va rang-barangligini oʻzida aks ettiradigan forscha lugʻatlarni tuzishning yagona metodologiyasi va standartlarini yaratish zarur.

Eronda leksikografiya yangi davrga qadam qoʻyganiga shubha yoʻq, garchi biz hali bu davrning boshida boʻlsak ham. Oʻtgan davrni anʼanaviy davr, hozirgi davrni esa zamonaviy davr

deb ataymiz. Albatta, lug'atchilik G'arbda yangi davrni bosib o'tib, uchinchi davrga kirdi. Bu davrda lug'atlar kompyuter yordamida yoki onlayn tarzda tayyorlanmoqda [1, b.3].

So'nggi yillarda Eronda va boshqa mamlakatlarda fors tiliga oid zamonaviy elektron lug'atlar ishlab chiqilmoqda. Elektron lug'atlarning turlari ham ko'p. Shu bilan birga, elektron formatda mavjud bo'lgan lug'at allaqachon yaratilgan qog'oz lug'atning shunchaki elektron (skanerlangan, raqamlashtirilgan) versiyasi emas, u butunlay mustaqil mahsulot bo'lib, uning mavjudligi shakli mantiqiy ravishda davom etadi va mazmun komponentini to'ldiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, "kompyuter leksikografiyasi nafaqat so'z topish, balki so'zning mazmuni bayon etishda ham o'ziga xos yondashuvlarga ega bo'lgan amaliy leksikografiyaning alohida yo'nalishidir" [2, b.6].

Elektron lug'atlar yaratishda odatdabir qancha bosqichlardan o'tiladi. Quyidagi misol tariqasidalug'at tuzish jarayoniga bir namuna beramiz:

Birinchi bosqich. Lug'atning asosi bo'lib xizmat qiladigan materiallar to'plash. Ularga lingvomadaniy sharhlarni yozish.

Ikkinchi bosqich. Lug'atning umumiy mohiyatini ishlab chiqish; lug'atning shaklini tanlash; dasturchi tomonidan ishlab chiqilgan kontseptsiyaga muvofiq texnik shartlarni tayyorlash.

Uchinchi bosqich. Funksional va funksional bo'lmagan talablarni aniqlash. Aniqlangan talablar asosida texnik shartlarni batafsil ko'rsatish. Elektron lug'at uchun izohlarni yozish.

To'rtinchi bosqich. Materiallarni qidirish va guruhlashning bir necha variantlari bilan kompyuter ilovasi arxitekturasini loyihalash, ularni ishlab chiqish vositalarini tanlash.

Beshinchi bosqich. Loyihalashtirilgan dastur arxitekturasi asosida elektron lingvomadaniy lug'atini tayyorlash. Belgilangan parametrlar bo'yicha qidirish, materialga statistik ishlov berish va qidiruv natijalarini saqlash imkonini beruvchi lug'at dasturiy platformasini ishlab chiqish. Elektron resursni ishlab chiqishni yakunlash. Intuitiv interfeys va qulay navigatsiya yaratish.

Oltinchi bosqich. Yaratilgan elektron lug'atning lingvokulturologiya va unga aloqador ilmiy yo'nalishlarda, shuningdek, leksikografik amaliyot sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar doirasida ekspertizadan o'tkazish [2, b.8].

Zamonaviy elektron lug'atlar bir qator xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Mashhur leksikograf V.P. Berkovaning fikricha XXI lug'atlari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- Hajmi katta bo'lishi;
- konsentrik tuzilishga ega bo'lishi;
- bir nechta lug'atlarni bitta umumiy lug'atga birlashtirishi;
- lug'atlarda audio bo'lishi mumkin;
- kiruvchi va chiquvchi so'zlar haqida to'liq leksi, grammatik ma'lumot berishi;
- so'z birikmalarini to'liqroq ochib berishi;

- grafik illyustratsiyalangan materialni o'z ichiga olishi;
- atoqli otlar haqida ma'lumot berishi;
- doimiy "yangilash xizmati" tashkil etilishi[3, b.262].

Hozirgi davrda fors tili o'rganuvchilar uchun Eronning o'zida ham bir qator elektron onlayn lug'atlar ishlab chiqilgan. Ularning eng mashhurlari *abadis.irvavajehyab.com* lardir. Bu lug'atlar fors tiliga oid mo'tabar izohli lug'atlarga havolalar berish bilan birga boshqa tillarga ham bir vaqtning o'zida tarjima ham qilish imkoniga ega. Bu lug'atlarning imkoniyatlaridan yana biri bu ma'lum leksik birlik uchun munozara qismi mavjudligidir. Ya'ni izohli lug'atlarda berilmagan so'zlar foydalanuvchilar tomonidan mana shu munozara qismida izohlar, qo'shimcha ma'lumotlar berilishi mumkin. Xususan, og'zaki tilga va shevalarga xos bo'lgan leksik birliklarning ma'nosini topishda bu jarayon ancha samarali bo'lmoqda.

Hozirgi kunda forscha o'zbekcha yoki aksincha o'zbekcha forscha lug'atga ehtiyoj juda yuqori. Xoh sohaviy, xoh umumiy mavzularga oid so'zlar bo'lsin, ularning ma'nosini oson va to'g'ri aniqlash muammosiga zamonaviy elektron lug'atlarni yechim sifatida qarasa bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ham aytish mumkinki, forscha zamonaviy lug'atlarni tuzish fors tili va bu tilning madaniy omillarni chuqur bilishni talab qiluvchi murakkab va serqirra vazifadir. Biroq tadqiqotchilar va tilshunoslarning sa'y-harakatlari tufayli nafaqat fors tilini o'rganuvchilarga yordam beradigan, balki Eron madaniy merosini asrab-avaylash va targ'ib qilishda muhim element bo'lgan turli xil lug'atlarni yaratish mumkin bo'ladi. Ushbu ajoyib sharq tiliga qiziqqan har bir kishi uchun ma'lumotlarning ochiqligi va to'liqligini ta'minlash uchun forscha lug'atlarni takomillashtirish va kengaytirish ustida ishlashni davom ettirish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. دوره جدید فرهنگ نویسی در ایران // <https://motarjemjournal.ir/2020/07/3391>
2. Агапова, Нина Александровна, and Наталья Федоровна Картофелева. "О принципах создания электронного словаря лингвокультурологического типа: к постановке проблемы." *Вестник Томского государственного университета* 382 (2014): 6-11.
3. Маммедова Жаля Эльдар. "Перспективы и проблемы компьютерной лексикографии" *Вестник Чувашского университета*, 2, 2018, pp. 261-267.
4. Русакова, Анастасия Вячеславовна. *Лингвистическая модель двуязычного электронного текстоориентированного словаря юридических терминов (на материале Конституции РФ, Конституции Французской Республики и Конвенции о защите Прав человека и основных свобод)*. Diss.

5. қизи Уктамова Х. А. ФАРҲАНГЛАР-ФОРСИ-ЙЕ ДАРИЙ ТИЛИ ГРАММАТИК АСАРЛАРИ СИФАТИДА //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

6. Уктамова Х. IX-XVII АСРЛАРДА ЯРАТИЛГАН ИЛМИЙ АСАРЛАРДА КЛАССИК ДАРИЙ ТИЛИ ГРАММАТИКАСИГА ОИД ФИКРЛАР ТАҲЛИЛИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2023. – Т. 6. – №. 5.